



UDK: 372.881.111:81'42

Charos SHARIPOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktranti
E-mail: charosjahontillari@gmail.com

Toshkent shahridagi Adju universiteti dotsenti v.b., PhD Y.Badelbayeva taqrizi asosida

TALABALAR LINGVOPRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRUVCHI TAMOYILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola chet tillarini o'qitishda talabalar lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantiruvchi tamoyillarni tahlil qiladi. Kontekstuallik, autentik materiallardan foydalanish, pragmatik xatolarni tahlil qilish, nutq aktlari va madaniy xabardorlik kabi tamoyillarning lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Ushbu tamoyillar til o'rganuvchilarning ijtimoiy-madaniy kontekstda tilni samarali qo'llash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Maqola lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy va amaliy asoslarini ko'rib chiqadi va o'qitish jarayonida ushbu tamoyillarni qo'llashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar orqali til o'qitishning samarali usullari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Chet tili o'qitish, lingvopragmatik kompetensiya, kontekstuallik, autentik materiallar, pragmatik xatolar, nutq aktlari, madaniy xabardorlik.

PRINCIPLES FOR DEVELOPING STUDENTS' LINGUOPRAGMATIC COMPETENCE

Annotation

This article analyzes the principles that develop students' linguopragmatic competence in teaching foreign languages. The importance of principles such as contextuality, the use of authentic materials, analysis of pragmatic errors, speech acts, and cultural awareness in fostering linguopragmatic competence is discussed. These principles help enhance language learners' ability to use language effectively in socio-cultural contexts. The article examines the theoretical and practical foundations of developing linguopragmatic competence and emphasizes the importance of applying these principles in the teaching process. Through research methodology, analysis, and results, effective methods of language teaching are revealed.

Key words: Foreign language teaching, linguopragmatic competence, contextuality, authentic materials, pragmatic errors, speech acts, cultural awareness.

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

Данная статья анализирует принципы, способствующие развитию лингвопрагматической компетенции студентов в обучении иностранным языкам. Обсуждается значение таких принципов, как контекстуальность, использование аутентичных материалов, анализ прагматических ошибок, речевые акты и культурная осведомленность, в развитии лингвопрагматической компетенции. Эти принципы способствуют повышению способности изучающих язык эффективно использовать язык в социокультурных контекстах. Статья рассматривает научные и практические основы развития лингвопрагматической компетенции и подчеркивает важность применения этих принципов в процессе обучения. Через методологию исследования, анализ и результаты раскрываются эффективные методы обучения языку.

Ключевые слова: Обучение иностранному языку, лингвопрагматическая компетенция, контекстуальность, аутентичные материалы, прагматические ошибки, речевые акты, культурная осведомленность.

Kirish. Biron bir chet tilini o'rgatish juda murakkab amaliyot hisoblanadi, chunki u o'quv materiallarini rejalashtirish va tilni o'rgatishni osonlashtirish uchun foydali resurslardan foydalanishning mukammal kombinatsiyasiga bog'liq. Chet tilini o'rganishni osonlashtirish uchun olimlar tomonidan berilgan tavsiyalaridan biri bu aynan chet tilini o'rgatish uchun foydali bo'lgan tamoyillarni joriy etishdan iborat.

Chet tili o'qitish tamoyillari – bu til o'rgatish jarayonini samarali tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi yo'naltiruvchi qoidalar va yondashuvlar majmuidir. Ular o'quvchilarning tilni tabiiy, tizimli va samarali o'zlashtirishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi: (1. rasmga qarang).



1.rasm. Chet tili o'qitish tamoyillarining asosiy jihatlari

Bu tamoyillar o'qituvchiga o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashishga va til o'rganishni qiziqarli hamda natijali qilishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.D. Galskova va N.I. Gezlar "Chet tillarni o'qitish nazariyasi. Lingvodicatika va metodika" nomli kitobida yozishlaricha, o'qitish nazariyasida tamoyillarni tasvirlash har qanday turdagi o'quv muassasasi va har qanday o'quv fani bo'yicha yuqori samarali o'quv-tarbiya jarayonini yaratishning kalitidir. Shuning uchun chet tillarini o'qitish tamoyillari muammosi har doim olimlar va tadqiqotchilar diqqat markazida turadi.

J.Jalolovning "Chet tilini o'qitish metodikasi" kitobida keltirilishicha, prof. Y.I. Passov prinsipni o'qitish atalmish binoning paydevoridir deb ta'riflagan. Prinsip bu asos bo'lib, o'qitishda xilma-xil qonun-qoidalariga asoslanadi.

A. N. Shukinning ta'kidlashicha o'qitish tamoyillari - bu o'z majmuida o'quv jarayoniga va uning tarkibiy qismlariga (maqsadlar, vazifalar, metodlar, vositalar, tashkiliy shakllar, o'qitish jarayoni) qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy qoidalaridir. Ular metodikaning asosiy kategoriyalari qatoriga kiradi, ularning o'quv jarayonida amalga oshirilishi uning samaradorligini ta'minlaydi.

L.R. Sakaeva va A.R. Baranovlar o'qitish tamoyillarini, tanlangan yo'nalish va shu yo'nalishga mos yondashuvlar asosida shakllanadigan, o'quv jarayoni xarakterini belgilovchi asosiy qoidalar tushuniladi deb izoh berishadi. Aniq ifodalangan o'qitish prinsiplari qanday va qanday o'quv mazmunini tanlash, qanday materiallar va usullardan foydalanish kerakligi to'g'risidagi masalani hal qilishga yordam beradi.

O'qitish tamoyillari chet tillarini o'qitishning umumiy yo'nalishi, tuzilishi, mazmuni, usullari va natijalarini belgilaydi. Chet tillarini o'qitish tamoyillari chet tillarini o'qitish tizimi va uning alohida komponentlari qanday ishlashi va rivojlanishini belgilovchi asosiy qoidalaridir [4].

G.V. Rogova chet tilini o'qitishda, fan xususiyatlarining o'ziga xosligi tufayli, tamoyillar o'ziga xos tarzda qo'llaniladi, chunki har bir vosita va maqsad bir xil darajada ahamiyatga ega deb ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishda ma'lum tamoyillarga tayanish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan yondashuvdir. Lingvopragmatik kompetensiya - bu tilni ijtimoiy kontekstga mos ravishda qo'llash, suhbatdoshning ko'zlangan maqsadlarini tushunish, nutq aktlarini to'g'ri talqin qilish va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatidir. Bu kompetensiya nafaqat til bilimlarini, balki ijtimoiy-madaniy bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida ma'lum tamoyillarga tayanish muhim hisoblanadi. Bu tamoyillar lingvopragmatik kompetensiyani tizimli ravishda rivojlantirishga yordam beradi va o'quvchilarning til bilimlarini nafaqat struktural, balki ijtimoiy-pragmatik jihatdan ham takomillashtirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishda chet tili o'qitish tamoyillarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ilmiy va amaliy yondashuvlarni birlashtiradi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyot tahlili, nazariy sintez va amaliy kuzatishlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz davomida o'rganilgan manbalardagi ma'lumotlarni jamlagan holda xulosa qilib, quyida keltirilgan tamoyillarni talabalar lingvopragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

1. Kontekstuallik tamoyili. Lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishda kontekstuallik tamoyili markaziy o'rin tutadi. Turli xil muloqot holatlarida til

birliklarining ma'nosi va funksiyasi o'zgarishi mumkin. Pragmatik ma'nolar ko'pincha kontekstga bog'liq bo'ladi, shuning uchun til o'rganuvchilar turli kontekstlarda so'zlarning qo'llanilishini o'rganishlari kerak. Bu tamoyil asosida o'qitish o'rganuvchilarga real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri til tanlovlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Pragmatikani o'qitishning eng muhim jihatlaridan biri kontekstga urg'u berishdir. Pragmatik ta'limni kontekstlashtirish talabalariga ijtimoiy normalarni bilish va qo'llashni mashq qilish uchun real hayotiy vaziyatlarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Bu turli usullar orqali amalga oshirilishi mumkin, masalan, rol o'ynash, simulyatsiyalar va yo'naltirilgan muloqotlar. Ushbu faoliyatlarda talabalar turli ijtimoiy vaziyatlar bilan tanishadilar va kontekstga asoslangan holda qanday to'g'ri javob berishni o'rganadilar. Misol uchun, o'qituvchi talabalardan rasmiy kechki ziyofatda ekanliklarini va ko'proq ovqat so'rashda odob bilan iltimos qilishni tasavvur qilishlarini so'rashi mumkin. Boshqa bir vazifada esa norasmiy vaziyatda tengdoshidan yordam so'rashni mashq qilishlari mumkin. Bu vazifalar talabalarni tilni qo'llashda ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy ishoralar haqida tanqidiy fikrlashga jumladan vaziyatning rasmiylik darajasi, so'zlovchilar o'rtasidagi munosabat va muloqotning hissiy ohangini hisobga olishga undaydi [14].

2. Autentik materiallardan foydalanish tamoyili. Lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishda autentik materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Real hayotiy vaziyatlarda ishlatiladigan til namunalari o'rganuvchilarga pragmatik jihatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Autentik materiallar til o'rganuvchilarning pragmatik kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Bu tamoyil til o'rganuvchilarga real hayotda duch keladigan muloqot vaziyatlariga yaxshiroq tayyorlanishga imkon beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, darslarda autentik materiallaridan – podkastlar, filmlar, onlayn maqolalardan foydalanish pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular talabalarni interaktiv rejimda tilning haqiqiy muloqot vaziyatlarida qo'llanilish xususiyatlarini ko'rsatib berish imkonini beradi. Talabalar shuningdek, til egalar bilan onlayn muloqot qilishlari, masalan, ingliz tilida virtual almashtiruv dasturlari doirasida muloqot qilishlari mumkin. Bu holda, o'quvchilar til egalarining turli vaziyatlarda qanday muloqot qilishlarini va pragmatik normalarni qo'llashlarini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi [12].

Autentik materiallar yordamida talabalar haqiqiy chet tilida qo'llaniladigan pragmatik qoidalar bilan tanishadilar. Til va madaniyat bir-biriga chambarchas bog'liq. Pragmatik qobiliyatlarni rivojlantirish uchun talabalar turli madaniyatlarda muloqot qoidalarini qanday farq qilishini tushunishlari kerak. Misol uchun, ingliz tilida xushmuomalalik juda muhim, va iltimos shakllari hamda istaklarni ifodalash ("Would you mind...?", "Could you possibly...?") keng qo'llaniladi. Boshqa madaniyatlarda esa, muloqot uslubi to'g'ridan-to'g'ri bo'lishi mumkin [7].

3. Pragmatik xatoliklarni tahlil qilish tamoyili. Pragmatik xatoliklarni tahlil qilish tamoyili lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tamoyil til o'rganuvchilarga pragmatik xatolarni aniqlash, tushunish va bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantirishga, kontekstual omillarning til tanloviga ta'sirini tushunishga va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Pragmatik xatoliklarni tahlil qilish tamoyilini qo'llash orqali o'qituvchilar talabalarning nafaqat lingvistik, balki pragmatik kompetensiyasini ham rivojlantirishga erishadilar. Bu esa o'z navbatida til o'rganuvchilarning o'rganayotgan tilda

samarali va kontekstga mos ravishda muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

Madaniyatlararo muloqotda pragmatik xatolikni tahlil qilish faqat lingvistik yondashuv emas, bu madaniyatlararo muloqot jarayonida muloqotning uzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri, qo'pol, noqulay va yoqimsiz nutqdan qochish usuli hamdir [9].

O'quvchilar muloqot jarayonida qiladigan pragmatik xatolarini o'rganib tahlil qilishlari bu ularga tilni ishlatishdagi farqlarni anglash va o'zlarining kommunikativ strategiyalarini yaxshilashga yordam beradi [8].

Pragmatik xatoliklarni tahlil qilish jarayonida til o'rganuvchilar o'z nutq xatti-harakatlarini tanqidiy baholash ko'nikmasini rivojlantiradilar. Pragmatik jihatlarni o'zlashtirishda "anglab yetish" muhim rol o'ynaydi. Xatolarni tahlil qilish til o'rganuvchilarning o'z pragmatik xatolari va ularning muloqotga ta'siri haqidagi xabardorligini oshiradi. Pragmatik xatoliklarni tahlil qilish tamoyili til o'rganuvchilarga o'z ona tili va o'rganayotgan til o'rtasidagi pragmatik farqlarni anglashga yordam beradi.

4. Nutq aktlarini o'rgatish tamoyili. Nutq aktlarini o'rgatish til o'qitishning muhim komponenti hisoblanadi. Nutq aktlari - bu muayyan ijtimoiy vaziyatlarda qo'llaniladigan nutq ifodalari (masalan, iltimos, taklif, tavsiya, uzr so'rash va boshqalar). Chet tili o'qitishda nutq aktlarini turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun nutq aktlarining turli turlari (direktiv, ekspressiv, komisiv, deklarativ va boshqalar) ni o'rgatish va ularni kontekstga muvofiq qo'llashni o'rgatish lozim. J.L. Austin va J.R. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asosi hisoblanadi.

Nutq aktlari chet tilini o'rganuvchilarning chet tilida to'g'ri muloqot qilish uchun o'zlashtirishi kerak bo'lgan eng keng ko'rib chiqilgan pragmatik xususiyatlardan biridir. Muayyan vaziyatning kontekstual va madaniy parametrlariga mos keladigan ma'lum bir nutq aktini qanday qo'llash va tushunish to'g'risida tegishli bilimga ega bo'lmas, chet tili o'rganuvchilari qo'pol yoki odobsiz deb qabul qilinish xavfiga duch kelishlari mumkin [11].

Nutq aktlarini o'qitishda, talabalar o'rganayotgan chet til so'zlashuvchilari o'rtasidagi haqiqiy muloqotga duch kelishlari yoki ular bilan muloqot qilishlari muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o'qituvchilar talabalarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishlari uchun mos o'quv materiallarini tanlashlari va moslashtirishlari kerak [13]. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha nutq aktlarini o'qitish o'quv dasturiga kiritilishi kerak va ular o'z tadqiqotlarida bu nazariyani xususiyatlarini va cheklovlarini tahlil qiladilar [3].

Chet tili darslarida nutq aktlarini o'qitishda o'qituvchilar bir necha jihatlarni hisobga olishlari kerak. Sinfdan nutq aktlarini o'qitishda talabalar o'rtasida tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, maslahat

berish kabi til ifodasini o'rgatish haqoratli narsa sifatida noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Sinfdan nutq aktlarini o'qitishning maqsadlari o'quvchilarning chet tilidagi nutq aktlarini noto'g'ri talqin qilinishi mumkinligi haqidagi tushunchalarini oshirishga qaratilishi kerak. Nutqlarni tahlil qilish orqali mo'ljallangan ma'noni aniq tushunish juda muhimdir [1].

5. Madaniy xabardorlik tamoyili. Til madaniy kontekstdan ajralmasligi sababli, lingvopragmatik kompetensiya madaniy xabardorlikni talab qiladi. Selsi-Mursiya (2007) til o'qitishda madaniyatning muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha agar til o'qitishning maqsadi kommunikativ kompetensiya bo'lsa, til o'qitish madaniy va madaniyatlararo o'qitish bilan integratsiyalashgan bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi [2].

Chet tili o'rganilayotgan madaniyatning pragmatik normalarini tushunish lingvopragmatik kompetensiyaning muhim qismidir. Bu tamoyil o'quvchilarga tilning madaniy kontekstda qanday ishlatilishini, masalan, rasmiy yoki norasmiy muhitda qanday farq qilishini o'rgatadi.

Pragmatika til orqali muloqotda juda muhim rol o'ynagan uchun, o'quvchilar madaniyatlararo pragmatikaga nisbatan tushunchaga ega bo'lishlari muhim, bu keng tarqalgan atamalar bilan aytganda kesishma pragmatika, madaniy yoki madaniyatlararo pragmatik xabardorlik deb nomlanadi. Kompetensiyaning etishmasligi pragmatik xatolikka olib keladi. Bu esa madaniy xabardorlikning til o'rganish va o'qitishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [6]. Madaniy xabardorlik o'z ichiga ikkita sifatni oladi, o'z madaniyati haqida xabardorlik va boshqa yoki o'zga madaniyatni anglash. [5]

Madaniy xabardorlik tamoyili - bu o'z madaniyati va chet tili madaniyatini bilish, madaniy universal tushunchalar va madaniy fon bilimlarining mavjudligini nazarda tutadi. Bu tamoyil turli madaniyatlar vakillari bilan to'g'ri muloqot qilish uchun zarur bo'lgan madaniyatlararo aloqa uchun axborot tayyorgarligini shakllantirishni anglatadi [10].

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot chet tili o'qitishda lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishning muhim tamoyillarini aniqladi. Kontekstuallik, autentik materiallardan foydalanish, pragmatik xatolarni tahlil qilish, nutq aktlarini o'rgatish va madaniy xabardorlik kabi tamoyillar til o'rganuvchilarning ijtimoiy-madaniy kontekstda tilni samarali qo'llash qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu tamoyillarni o'qitish jarayonida tizimli qo'llash til o'rganuvchilarning lingvopragmatik kompetensiyasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Kontekstga asoslangan o'qitish, real hayotiy materiallardan foydalanish va madaniy farqlarni hisobga olish til o'rganuvchilarning muloqotdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Nutq aktlari va pragmatik xatolarni tahlil qilish orqali talabalar tilning ijtimoiy nozikliklarini tushunishga va o'z nutq xatti-harakatlarini tanqidiy baholashga o'rganadilar. Madaniy xabardorlik esa madaniyatlararo muloqotda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Agus Hidayat. Speech Acts: Force Behind Words. English Education: Jurnal Tadris Bahasa Inggris, Vol. 9 (1), 2016, pp. 1-12. p-ISSN 2086-6003.
2. Celce-Murcia, M. Rethinking the role of communicative competence in language teaching. Intercultural language use and language learning. Dordrecht, Netherlands: Springer, 2007, pp. 41-57.
3. FENG Yi-xuan. Teaching Speech Acts in EFL Classrooms: An Implicit Pedagogy. Sino-US English Teaching, Vol. 13, No. 7, July 2016, pp. 515-520. doi:10.17265/1539-8072/2016.07.002.
4. Гальскова Н.Д., Василевич А.П., Коряковцева Н.Ф., Акимова Н.В. Основы методики обучения иностранным языкам. Москва: КноРус, 2017, стр. 82-87.

5. Гимальдинова С.Х., Киндлер Е.А. Прагматика на уроках английского языка: как избежать прагматической неудачи (межкультурная коммуникация). Международный научный журнал «Вестник науки», № 1 (70), Том 4, январь 2024, стр. 342-359.
6. Геннадиевна Б.И. Культурная осведомленность как элемент глобальной межкультурной компетентности. *Culture and Civilization*, Vol. 11, Is. 1A, 2021, стр. 191-199. DOI: 10.34670/AR.2020.13.52.023.
7. Ibadullayeva U.X. Method of developing pragmatic competences in the process of learning English. *International Journal of Artificial Intelligence*, Vol.05.Issue 03, 2025, pp. 1595-1600. ISSN: 2692-5206. Impact Factor: 12.23.
8. Коломыцева Д.А. Стратегии и способы коррекции ошибок при обучении говорению на средней ступени изучения иностранного языка в общеобразовательной школе. Воронежский Государственный Университет. *Elektron manba. Прагматика в обучении иностранному языку — энциклопедия «Знание.Вики» (znanierussia.ru)*. Murojaat sanasi: 29.04.2025.
9. Lan Ding. Analysis of Pragmatic Failure and Strategies in Cross-cultural Communication. *International Journal of Linguistics, Literature and Translation*, pp. 72-77. ISSN: 2617-0299 (Online); ISSN: 2708-0099 (Print).
10. Макарова Л.В. Значимость информационной готовности при формировании межкультурной компетенции. *Наука и современность*, 2012, стр. 108-112.
11. Martínez-Flor, A. & Usó-Juan, E. Teaching speech acts in a second language. In K. Schneider & E. Ifantidou (Ed.), *Developmental and Clinical Pragmatics*, 2020, pp. 269-300. Berlin, Boston: De Gruyter Mouton.
12. Пирогова Н.Г., Рожков Г.А. Особенности развития прагматической компетенции в процессе обучения иностранному языку студентов университета. *Вестник Самарского государственного технического университета. Серия «Психолого-педагогические науки»*, 2024, Т. 21, № 2, стр. 49–64.
13. Tran Thanh Du. Teaching speech acts as a way to develop Students' communicative competence. *Journal of Science*. Vol.5.Issue4.2023, pp.420-432. 14. Zhanysbekova Sh., Nurgali S., Shoibekova A., Sagnaeva G., Aitbayeva N., Asimbay N. Enhancing Pragmatic Competence in Language Lessons for School Children. *Journal of Ecohumanism*. Vol. 3. No. 8, 2024, pp. 7096–7107.